

**ADVOKAT TOMONIDAN BEPUL YURIDIK YORDAM KO'RSATISH
TUSHUNCHASI VA TURLARI**

Malika To'ychiyeva

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti Toshkent, O'zbekiston

Malikatuychiyeva97@gmail.com

**CONCEPT AND TYPES OF PROVIDING FREE LEGAL ASSISTANCE
BY AN ADVOCATE**

Malika Tuychieva

Master student of the Tashkent State University of Law Tashkent, Uzbekistan

Malikatuychiyeva97@gmail.com

**ПОНЯТИЕ И ВИДЫ ОКАЗАНИЯ БЕСПЛАТНОЙ ЮРИДИЧЕСКОЙ
ПОМОЩИ АДВОКАТОМ**

Малика Тўйчиева

Магистрант Ташкентского государственного
юридического университета Ташкент, Узбекистан

Malikatuychiyeva97@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada advokat tomonidan bepul yuridik yordam ko'rsatish turlari va shakllariga to'xtalib o'tilgan. Davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish va ixtiyoriy bepul yuridik yordam (pro bono) tushunchalariga ta'rif berilgan hamda ularning o'zaro farqi bayon etilgan. Advokatlar tomonidan bepul yuridik yordam ko'rsatish sohasida mamlakatimizda mavjud normativ-huquqiy hujjatlar tahlil etilgan. Mazkur yo'nalishda Konstitutsiya va qonunchilikka kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar yoritilgan. Pro bono institutining vujudga kelish tarixi bayon etilgan. "Madad" nodavlat notijorat tashkiloti hamda Toshkent davlat yuridik universiteti yuridik klinikasi faoliyati yuzasidan ma'lumot berilgan. Advokat tomonidan ko'rsatilgan ixtiyoriy bepul yuridik yordamga (pro bono) oid statistik ma'lumotlar tahlili qilingan. Mavzuga oid tegishli xulosalar ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ

В данной статье основное внимание уделяется видам и формам оказания бесплатной юридической помощи адвокатом. Определены понятия оказания бесплатной юридической помощи за счет государства и добровольной бесплатной юридической помощи (pro bono) и объяснено их взаимное отличие. Юристы проанализировали имеющиеся в нашей стране правовые документы в сфере бесплатной юридической помощи. В этом направлении освещаются изменения и дополнения в Конституцию и законодательство. Описана история института pro bono. Была предоставлена информация о деятельности негосударственной некоммерческой организации «Мадад» и юридической клиники Ташкентского государственного юридического университета. Проведен анализ статистических данных о добровольной бесплатной юридической помощи (pro bono), оказанной адвокатом. Представлены соответствующие выводы по теме.

ABSTRACT

This article focuses on the types and forms of providing free legal assistance by a lawyer. The concepts of providing free legal aid at the expense of the state and voluntary free legal aid (pro bono) are defined and their mutual difference is explained. Lawyers have analyzed the legal documents available in our country in the field of free legal assistance. Changes and additions to the Constitution and legislation are covered in this direction. The history of the pro bono institute is described. Information was provided on the activities of the "Madad" non-governmental non-profit organization and the legal clinic of the Tashkent State Law University. The analysis of statistical data on voluntary free legal aid (pro bono) provided by a lawyer was made. Relevant conclusions on the topic are presented.

Kalit so‘zlar: advokat, davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko‘rsatish, pro-bono, “Madad” nodavlat-notijorat tashkiloti, yuridik klinika.

Ключевые слова: адвокат, оказания бесплатной юридической помощи за государственный счет, pro-bono, негосударственная некоммерческая организация «Мадад», юридическая клиника.

Keywords: advocacy, provision of free legal assistance at the state account, pro-bono, non-governmental non-profit organization "Madad", legal clinic.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklari kafolatlangan bo‘lib, uning 44-moddasida, har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan[1]. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, fuqarolarga sud orqali himoyalani sh huquqi berilar ekan, ularga professional huquqiy yordam ko‘rsatilishi ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, har bir shaxsning mazkur huquqini ta‘minlash maqsadida, sohada bir qator islohotlar nazarda tutilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasida advokatlarning shaxsiy daxlsizligi, ularning huquq va mafaatlari alohida bob sifatida shakllantirilishi bilan bir qatorda, fuqarolarning davlat hisobidan bepul yuridik yordam olishga bo‘lgan huquqlarining kafolatlanishi bunga yaqqol dalildir. Qonun loyihasining 29-moddasiga asosan, har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi.[2]

Shu o‘rinda bevosita advokat tomonidan bepul yuridik yordam ko‘rsatish tushunchasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, uning ikki xil shakli mavjud:

1. Qonunchilikda belgilangan tartibda davlat hisobidan haq to‘lash evaziga professional advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik yordam;
2. Advokatning o‘z ixtiyoriga ko‘ra yordam so‘rab murojaat qilgan shaxslarga bepul yuridik yordam ko‘rsatishi (pro bono).

Hozirda “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda quyidagicha ta‘rif berilgan:

Davlat hisobidan yuridik yordam – ushbu Qonunda belgilangan tartib-taomillar va shartlarga muvofiq to‘liq yoki qisman davlat hisobidan ko‘rsatiladigan, jismoniy shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan malakali yuridik yordam.

Aytib o‘tish lozimki, joriy yilda “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasining muhokamaga qo‘yilgani muhim ahamiyat ega bo‘ldi. Sababi, bugunga qadar ushbu institutning yagona mexanizmi ishlab chiqilmagan va quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinib kelinmoqda:

- amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi[3];
- Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 20-iyundagi "Advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan haq to'lash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 137-son qarori[4];
- "Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 1878, 2008-yil 2-dekabr')

Amaldagi qonunchilikka asosan, kam ta'minlangan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida oilasida har bir oila a'zosiga to'g'ri keladigan yalpi oylik daromad yuridik yordam ko'rsatilganligi uchun haq to'lashdan ozod qilish to'g'risida qaror (ajrim) qabul qilingan kundagi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 52,70 foizidan ortiq bo'lmagan (bugungi kunda 485 ming so'm atrofida) shaxslar uchun hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi himoyachidan voz kechishi bilan bog'liq protsessual harakatda advokat ishtirok etishi hollarida advokatlar uchun to'lov davlat hisobidan qoplab beriladi[5]. Bu faqatgina jinoyat sud ishlarini yuritishda amalga oshiriladi.

Shu o'rinda bepul ixtiyoriy yuridik yordam (pro bono) tushunchasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, pro bono – aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga fuqarolik, ma'muriy va jinoyat ishlari bo'yicha bepul va ixtiyoriylik asosida qonunchilikka zid bo'lmagan tartibda va turlarda ko'rsatiladigan malakali yuridik yordam.

Fikrimizcha ushbu atama ostida (lot. Pro bono public –jamoatchilik manfaati uchun) mulkiy maqomi yoki boshqa sabablarga ko'ra yuridik yordam olishga imkoniyati bo'lmagan shaxslarga, mulkiy va nomulkiy kompensatsiyalarni olmasdan o'z xizmatlarini taqdim etishni tushunish kerak.

"Bepul yuridik yordam" atamasi qadimgi Afinadan beri fuqarolik jamiyatiga ma'lum bo'lib, undagi demokratiya, fuqarolik jamiyati va adolat g'oyalari kambag'allarga bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimini taqdim etgan. O'rta asrlarda bepul yuridik yordam ko'rsatish nasroniylik va cherkov bilan ko'proq bog'liq bo'lib, ko'pincha PRO DEO (Xudo uchun) – xayriya turi deb atalgan.

Keyinchalik "Pro Bono" amaliyotining rivojlanishi huquqshunoslarning universitetlar, mahalliy hokimiyat organlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorligi tufayli yanada jadallashdi. Shunday qilib, 1885 yilda Daniya advokatlar assotsiatsiyasi Kopengagenda xususiy advokatlar va talabalar tomonidan huquqiy yordam ko'rsatadigan maxsus markaz tashkil etdi. 1990 yilda Shotlandiyada xususiy advokatlar Edinburgdagi huquqshunoslik fakultetida

“huquqiy dispanser”ni tashkil etib, oylik daromadi 12 funt sterlingdan ortiq bo‘lmagan har qanday kishiga huquqiy yordam ko‘rsatdi 1970 yilda kamida 24 ta yirik AQSH yuridik kompaniyalari “Pro Bono” dasturlarini rasmiylashtirdilar va Hogan&Hartson (hozirgi Hogan Lovells) bir nechta xodimlar bilan bepul yuridik yordam ko‘rsatish uchun to‘liq tarkibda ishlovchi “Jamoatchilik manfaatlari departamentini” tashkil etdi. 1983 yilda Amerika advokatlar assotsiatsiyasi “pro bono” maxsus qoidalarini qabul qildi. 10 yil o‘tgach, ular amerikalik huquqshunoslarning yiliga kamida 50 soat “pro bono” tartibida huquqiy yordam ko‘rsatishlari kerakligi haqidagi qoidani kiritgan.

Buyuk Britaniyada, 1996 yilga qadar, ingliz huquqshunoslik kompaniyalari davlat bepul yuridik yordam tizimining rivojlangan tizimi bilan bog‘liq holda “pro bono”dan foydalanishni istamaydilar, fikrimizcha buning asosiy sababi davlat subsidiyalangan yuridik yordamiga qarshi chiqmaslik bo‘lgan. 1996 yilda Endryu Flibs “LawWorks”(Qonunchilik ishi) deb nomlangan “Pro bono” solicitorlari (Solisitors pro bono group) guruhini yaratdi. Ushbu tashkilotning maqsadi butun Yevropaning advokatlarini birlashtirish va “Pro bono”ni markazlashtirilishi edi. Guruh a’zolarining soni juda tez o‘ydi: 2000 yilda 130 ta yuridik firmalaridan iborat bo‘lib, ular orasida 40%i yetakchi firmalar; 2012 yilda 45% ingliz huquqshunoslik firmalaridan advokatlar va 81 ta hamkorlar bunday loyihalarda ishtirok etishgan[6].

Mamlakatimizda ushbu faoliyatga ruxsat berilgan bo‘lib, uni amaliyotda ham keng qo‘llanilayotganini quyidagi statistik ko‘rsatkichlardan bilishimiz mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining 2023-yil 1-yanvar holatiga nisbatan yillik ish faoliyati bo‘yicha statistik ma’lumotlariga ko‘ra, advokatlar tomonidan og‘zaki (yozma) huquqiy maslahatlar va tushuntirishlarning umumiy soni 113948 tani tashkil etgin bo‘lib, shundan 97540 tasi bepul amalga oshirilgan. Shuningdek, shartnomalar (bitimlar va boshqalar) yuzasidan berilgan xulosalar, tayyorlangan hujjatlar loyihalari soni jami 36552 ta bo‘lib, shundan 17615 tasi bepuldir [7].

Aytib o‘tish joizki, 2019-yil 6-sentabrda Vazirlar Mahkamasining “Aholiga huquqiy axborotni yetkazish va yuridik yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 741-son qaroriga[8] ko‘ra aholiga bepul yuridik maslahatlar va amaliy huquqiy yordam ko‘rsatish uchun “Madad” nodavlat notijorat tashkiloti tashkil etildi[9].

Shuningdek, 2018-yildan buyon Toshkent davlat yuridik universiteti huzurida yuridik klinika faoliyat yuritib kelayotgan bo‘lib, telegram ijtimoiy

tarmog'ida @Yuridik_klinika_bot orqali aholining 1500 dan ortiq huquqiy tusdagi savollariga javob berib kelinmoqda.[10]

Afsuski, ushbu tashkilotlar fuqarolarning huquqlarini sudda himoya qila olmaydi, faqatgina bepul yuridik maslahatlar berishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugunga kelib advokat tomonidan bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish, shuningdek yagona qonun hujjatini qabul qilish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunga yaqqol dalil, fuqarolarning mazkur huquqi yangidan ishlab chiqilgan Konstitutsiya loyihasida ham nazarda tutilayotgani bo'lib, bu o'z navbatida davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish mexanizmini har tomonlama takomillashtirishni taqozo etadi.

Адабиётлар рўйхати/Библиографические ссылки/References:

1. <https://lex.uz/docs/-20596>
2. https://meningkonstitutsiyam.uz/konstitutsiya_uz.pdf
3. <https://lex.uz/acts/-111460>
4. <https://lex.uz/uz/docs/-1363850>
5. <https://lex.uz/acts/-1412912#-1413019>
6. Нурумов Д. Д. АДВОКАТ ТОМОНИДАН БЕПУЛ ЮРИДИК ЁРДАМ КЎРСАТИШНИНГ НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2022. – №. SI-4.<https://paruz.uz/uploads/2023/02/j-ucun-hisobot23.pdf>
7. <https://paruz.uz/uploads/2023/02/j-ucun-hisobot23.pdf>
8. Raxmonov , E. K. o'g'li, Qobilov , F. S. o'g'li, & Berdimuradov , X. T. o'g'li. (2023). RESPUBLIKAMIZDA YETISHTIRILAYOTGAN BUG'DOY DONLARINING FIZIK-KIMYOVIY KO'RSATKICHLARINING TAHLILI. ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2(2), 95–101. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/144>
9. Qobilov, F. S. o'g'li, & Raxmonov, E. K. o'g'li. (2023). NON MAHSULOTLARINI TAYYORLASHDA QURUQ KLEYKOVINADAN QO'SHIMCHA SIFATIDA FOYDALANISH. ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2(2), 58–63. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/139>
10. Sattorova, K. A. qizi, & Raxmonov, E. K. o'g'li. (2022). NON MAHSULOTLARINI SIFATINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN

- QO'SHIMCHALAR. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(1), 29–31.
Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/230>
11. O'G'Li, X. T. X., Berdimuradov, E. K. O. G. L., BUG'DOY, R. N. U. T., & ASOSLASH, N. T. V. CARJIS. 2022. № 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/navli-un-tortishda-bug-doy-navlarini-tanlash-va-asoslash> (дата обращения: 29.03. 2023).
12. Rakhmonov, J. (2022). INITIATIVES OF THE WORLD HEALTH ORGANIZATION AND THE INTERNATIONAL OLYMPIC COMMITTEE FOR HEALTHY LIFESTYLES ON INTERNATIONAL LEGAL ISSUES. Solution of social problems in management and economy, 1(7), 16-18.
13. Jaloliddin, R. (2023). INVESTOR-STATE DISPUTE SETTLEMENT IN INTERNATIONAL PUBLIC LAW: AN EVALUATION OF RECENT DEVELOPMENTS. International Journal Of Law And Criminology, 3(04), 1-4.
14. Hamroyeva Sh.Sh., & Muhidova G. (2018). PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS. Мировая наука, (5 (14)), 37-39.
15. Hamroyeva Sh.Sh. (2018). SIR WALTER SCOTT'S ARTISTIC SKILL IN THE EXPRESSION OF HISTORICAL FACTS AND LITERARY FICTION IN HIS HISTORICAL NOVELS. Мировая наука, (5 (14)), 35-37.
16. <https://lex.uz/ru/docs/-4500969>
17. <https://lex.uz/ru/docs/-4500969>
18. <https://tsul.uz/uz/all-centers/8/%D0%AE%D1%80%D0%B8%D0%B4%D0%B8%D0%BA%20%D0%BA%D0%BB%D0%B8%D0%BD%D0%B8%D0%BA%D0%B0>